

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA DIREKTOR
O'RINBOSARINING LIDERLIK SALOHIYATINI OSHIRISH HAMDA
TA'LIMY FAOLIYATGA TATBIQ ETISH**

*Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani
30-sonli DMTT Direktor o'rinbosari
Yo'ldosheva Dildora Hasanovna*

Annatatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarish va puxta rejalashtirish hozirgi davrning eng muhim masalalaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlik va boshqaruvning zamonaviy hamda innovatsion yondashuvlari haqida mulohazalar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье управление и планирование организационного дошкольного образования рассматривается как одна из актуальных задач современности. В статье высказываются мнения о новых инновационных методах лидерства и управления в дошкольных образовательных организациях.

Annotation: In this article, management and planning of pre-school education organizations is considered one of the urgent tasks of today. The article expresses opinions on new innovative methods of leadership and management in preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: rahbar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, boshqaruv, ta'lim tizimi, metodik boshqarish, innovatsion faoliyat, pedagogik jarayon.

Ключевые слова: лидер, дошкольные образовательные организации, менеджмент, образовательная система, методическое руководство, инновационная деятельность, педагогический процесс.

Key words: leader, preschool educational organizations, management, educational system, methodical management, innovative activity, pedagogical process.

Direktor o'rinbosari ta'limiy faoliyatni tashkil etishda metodik ishlarni yo'lga qo'yish, mashg'ulotlar sifati va samaradorligini tahlil qilish, pedagoglar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ota-onalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish kabi ko'plab mas'uliyatli vazifalarni amalga oshiradi. Bunday vazifalarni samarali bajarish uchun esa direktor o'rinbosarida nafaqat kasbiy bilim, balki **liderlik salohiyati**, ya'ni jamoani boshqarish, motivatsiya berish, muammolarga tezkor yechim topish, ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish, jamoada hamjihatlik va ishonchni shakllantirish kabi muhim kompetensiyalar rivojlangan bo'lishi lozim.

Liderlik - bu guruhning alohida a'zolari xatti-harakatlarining psixologik xarakteristikasi, rahbarlik esa guruhdagi munosabatlarning ijtimoiy xarakteristikasi va birinchi navbatda boshqaruv va bo'ysunish rollarini taqsimlash nuqtai nazaridir. Liderlikdan farqli o'laroq, rahbarlik jamiyat tomonidan tartibga solinadigan huquqiy jarayon sifatida faoliyat yuritadi. Biroq, ushbu farqlarga qaramay, rahbar ham, lider ham tashkilot xodimlarini rag'batlantirish, ularni muayyan vazifalarni hal qilishga yo'naltirish, ushbu vazifalarni hal qilish vositalariga g'amxo'rlik qilish bilan bog'liq bir xil turdagi muammolarni hal qilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari, xususan, direktor o'rinbosarining liderlik salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki direktor o'rinbosari ta'lim jarayonini tashkil etish, pedagoglar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishda yetakchi bo'g'in hisoblanadi.

Lider - odamlarni ruhlantiradi va xodimlarda g'ayrat uyg'otadi, ularga kelajak haqidagi tasavvurlarini beradi va ularning yangi sharoitga moslashishiga, o'zgarish bosqichidan o'tishiga yordam beradi.

Liderlik sifatlarini rivojlantirish usullari

Direktor o'rinbosarining liderlik salohiyatini oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- boshqaruv va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish;
- kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlash;
- jamoa bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlarni o'zlashtirish;
- o'z ustida doimiy ishlash va kasbiy malakani oshirish.

Maktabgacha ta'lim tizimida shaxsining liderlik fazilatlari tashkilotning muvaffaqiyati va ta'limiy faoliyat samaradorligining asosiy omillaridan biridir. Zamonaviy direktor nafaqat boshqaruvchi, balki jamoani ilhomlantiruvchi, innovatsiyalarni joriy etuvchi, bolalar tarbiyasi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi lider bo'lishi zarur.

Liderlik sifatlarini ta'limiy faoliyatda qo'llash

Direktor o'rinbosarining liderlik fazilatlari nafaqat boshqaruvda, balki ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi:

 **Pedagoglarni ilhomlantirish orqali** – o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish va yangiliklarga ochiqqligini ta'minlash.

 **Bolalarning rivojlanishiga e'tibor qaratish orqali** – ta'limiy faoliyat markazlarini samarali tashkil etish.

 **Hamkorlikni kengaytirish orqali** – ota-onalar, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash.



Natijadorlik monitoringi orqali – pedagogik jarayonning sifatini tahlil

qilish va takomillashtirish.

Rahbarlik – lavozim, mansab emas, avvalo, odamlarga xizmat qilish mas’uliyat ekanini barcha to‘g‘ri tushunib olmog‘i zarur. Rahbar degani hammadan ko‘proq ishlab, fuqarolar saodati va yurti ravnaqi uchun elib yuguradigan fidoiy inson bo‘lishi kerak.



ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiymetodik tayyorgarligi, g‘oyaviy-siyosiy va ma‘naviy-axloqiy etukligidan iborat. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bir-birini to‘ldiradi, o‘zaro uzviy ravishda shakllanib, rivojlanadi, rahbarning mazkur tarkibiy qismlar bo‘yicha egallagan

bilim, ko‘nikma va malakalari pedagogik faoliyatda qo‘llaniladi. Shu sababli MTT direktorlarining ilmiy-metodik tayyorgarligi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari ichida asosiy o‘rinni egallaydi. Amaldagi me‘yoriy hujjatlarda belgilangan ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining tamoyillaridan kelib chiqqan holda ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish hamda rahbarlik faoliyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozigi tez o‘zgarayotgan bir davrda MTT boshqaruv kadrlari har tomonlama intellektual salohiyatli, o‘z faoliyatiga jiddiy qaraydigan, har bir bajarayotgan vazifasiga ijodiy yondashadigan rahbar sifatida faoliyat olib borishini davrning o‘zi taqozo etmoqda. Chunki, rahbarning teran tafakkuri va keng dunyoqarashi, zamon talabiga javob beradigan, pedagogika, psixologiya, boshqaruv ilmidan xabardorligi, ijodiy fazilat va xislatlarga, iymon-e‘tiqodga, muomala madaniyatiga ega, ijtimoiy faol, tashkilotchi va tadbirkorligi u boshqarayotgan ta‘lim tashkilotining kelgusidagi samarali faoliyatini belgilaydi.

Har qanday rahbar yangilik kiritishda– bu printsiplial jihatdan yangi tarkibiy qismni yaratish va keyinchalik amalga oshirishdan boshqa narsa emas, buning natijasida atrof –muhitda sifatli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Texnologiya, o‘z navbatida, ma‘lum bir biznesda, hunarmandchilikda yoki san‘atda qo‘llaniladigan turli xil texnikalar to‘plamidir. Shunday qilib, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalar zamonaviy komponentlar va texnikalarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, ularning asosiy maqsadi o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishdir. Buning uchun bolalar bog‘chasidagi pedagogik jamoalar boshqa maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridan farqli o‘laroq, bolalarni tarbiyalash va intellectual rivojlantirishning eng yangi modellarini ishlab chiqadilar. O‘qituvchilar kasbiy faoliyatlarida uslubiy vositalar, usullardan foydalanadilar va qabul qilingan modelga to‘la mos keladi. Kelajagimizni

shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanishi, aynan shu davrdagi bolalarni yaxshi bilimlar bilan ulg'aytira olishimiz bilan bog'liq ekan biz bu borada befarq bo'lolmaymiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga hayotimizdagi eng ilg'or o'qituvchi, tarbiyachilarni joylashtirimiz va har bir ta'lim beruvchilarni tanlab talablarga javob bera oladigan kadrlarnigina olishimiz zarur. Shundagina biz bu sohada ilg'or natijalarga ega bo'lishimizga ishonaman. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tobora ko'proq foydalanilmoqda va ularni amalga oshirish natijasi o'n yildan ko'proq vaqt davomida paydo bo'ladi. Bugungi kunga qadar keng Vatanimizdagi bolalar bog'chalarida qo'llaniladigan yuzdan ortiq ta'lim texnologiyalari mavjud.

Rahbarlik qobiliyatlari

- **Strategik fikrlash:** Maktabgacha ta'lim muassasasi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga qodir bo'lish.
- **Mas'uliyat va tashabbuskorlik:** O'z vazifalarini qat'iyat va javobgarlik bilan bajarish, yangi g'oyalarni ilgari surish.
- **Jamoani boshqarish:** Xodimlarni birlashtirish, motivatsiya qilish va ularning imkoniyatlarini to'liq ochib berish.

Xulosa qilib aytganda, Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida direktor o'rinbosarining liderlik salohiyatini oshirish ta'lim sifatini yuksaltirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy rahbar sifatida direktor o'rinbosari o'z yetakchilik qobiliyatlarini doimiy rivojlantirib borishi va ularni ta'limiy faoliyatga samarali tatbiq etishi zarur. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Moliyaviy boshqaruv, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash va byudjetni samarali taqsimlash kabi iqtisodiy bilimlar ham rahbarning muvaffaqiyatli faoliyati uchun muhim omillardandir. Shuningdek, rahbar xodimlar zamon talablariga mos holda o'zlarini rivojlantirish, doimiy ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallashni maqsad qilgan bo'lishlari lozim. Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, zamonaviy rahbar – bu nafaqat boshqaruvchi, balki o'zgarmas lider, pedagogik jarayonlar innovatori va jamoani birlashtiruvchi shaxsdir. Ularning sifatli boshqaruvi orqali maktabgacha ta'lim tizimi samaradorligi oshib, kelajak avlod tarbiyasida yuqori natijalarga erishish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 iyundagi PQ-5144-son qarori.
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova Maktabgacha pedagogika T-"Ma'naviyat" 2018y.
3. Tretyakov P.I. "Maktabgacha ta'lim muassasasi: natijalarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish", M., UTs "Perspektiva", 2010y.

4. Рахматуллаева, П. М., & Махамова, М. А. (2022). Yoshlar ta'lim sifatini oshirishda motivatsiyaning o'rni yoxud ulkan maqsadlar sari dastlabki qadam. Central Asian Research Journal
5. Karimova N.Q "Maktabgacha ta'lim muassalari boshqaruvining dolzarb muammolari"3-4B(2021)